



THE PHILOSOPHICAL ESSENCE OF GENDER AND ITS EXPRESSION IN SOCIAL REALITY

Mohira Mukumjonovna Muydinova

Associate Professor

Doctor of Philosophy (PhD) in Sociological Sciences

Namangan State University

m.muydinova@mail.ru

Namangan, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: gender, gender equality, biological sex, social gender, gender stereotypes, women's social activity, family and gender relations, legal culture, social consciousness, philosophical analysis.

Received: 22.02.26

Accepted: 23.02.26

Published: 24.02.26

Abstract: This article analyzes the philosophical essence of the concept of gender and its forms of manifestation in social reality. The gender phenomenon is interpreted as a socio-cultural construct distinct from biological sex, and the role of historical, cultural, legal, and socio-economic factors in its formation is examined. The article provides a philosophical justification of the development of gender theory, feminist and sociological approaches, as well as the impact of gender roles and stereotypes on social life.

In addition, the article analyzes women's social activity, the manifestation of gender inequality within the family environment, and the importance of legal culture and the education system in ensuring gender equality. The gender issue is approached not only from a normative-legal perspective but also from the standpoint of the necessity to transform social consciousness and worldview. The research findings demonstrate that ensuring gender equality is an essential condition for the cultural development of society and the advancement of civil society.

GENDERING FALSAFIY MOHIYATI VA UNING IJTIMOIIY VOQELIKDAGI IFODASI

Mohira Mukumjonovna Muydinova

Sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD), dotsent

Namangan davlat univeristeti

m.muydinova@mail.ru

Namangan, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Gender, gender tengligi, biologik jins, ijtimoiy jins, gender stereotiplari, ayollarning ijtimoiy faolligi, oila va gender munosabatlari, huquqiy madaniyat, ijtimoiy ong, falsafiy tahlil.

Annotatsiya: Mazkur maqolada gender tushunchasining falsafiy mohiyati va uning ijtimoiy voqelikdagi ifoda shakllari tahlil qilinadi. Gender fenomeni biologik jinsdan farqli ravishda ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida talqin etilib, uning shakllanishida tarixiy, madaniy, huquqiy va ijtimoiy-iqtisodiy omillarning o'rni yoritiladi. Maqolada gender nazariyasining shakllanish jarayoni, feministik va sotsiologik yondashuvlar, shuningdek, gender rollari va stereotiplarining jamiyat hayotiga ta'siri ilmiy-falsafiy jihatdan asoslab beriladi. Shuningdek, xotin-qizlarning ijtimoiy faolligi, gender tengsizligining oilaviy muhitda namoyon bo'lishi, huquqiy madaniyat va ta'lim tizimining gender tengligini ta'minlashdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Gender masalasiga faqat normativ-huquqiy emas, balki ijtimoiy ong va dunyoqarashni o'zgartirish zarurati nuqtai nazaridan yondashiladi. Tadqiqot natijalari gender tengligini ta'minlash jamiyatning madaniy taraqqiyoti va fuqarolik jamiyati rivojining muhim sharti ekanini ko'rsatadi.

ФИЛОСОФСКАЯ СУЩНОСТЬ ГЕНДЕРА И ЕГО ПРОЯВЛЕНИЕ В СОЦИАЛЬНОЙ РЕАЛЬНОСТИ

Мохира Мукумджоновна Муйдинова

Доктор философии (PhD) по социологическим наукам, доцент

Наманганский государственный университет

m.muydinova@mail.ru

Наманган, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: гендер, гендерное равенство, биологический пол, социальный пол, гендерные стереотипы, социальная активность женщин, семейные и гендерные отношения, правовая

Аннотация: В данной статье анализируется философская сущность понятия гендера и формы его проявления в социальной реальности. Гендер рассматривается как социально-

культура, общественное философский анализ.

сознание, культурный феномен, отличающийся от биологического пола, при формировании которого значительную роль играют исторические, культурные, правовые и социально-экономические факторы. В статье философски обосновываются процессы формирования гендерной теории, феминистские и социологические подходы, а также влияние гендерных ролей и стереотипов на общественную жизнь.

Кроме того, анализируется социальная активность женщин, проявления гендерного неравенства в семейной среде, а также значение правовой культуры и системы образования в обеспечении гендерного равенства. Гендерная проблематика рассматривается не только в нормативно-правовом аспекте, но и с точки зрения необходимости трансформации общественного сознания и мировоззрения. Результаты исследования показывают, что обеспечение гендерного равенства является важным условием культурного развития общества и становления гражданского общества.

Kirish. Zamonaviy jamiyat taraqqiyoti sharoitida gender masalasi ijtimoiy fanlarning muhim tadqiqot ob'ektlaridan biriga aylandi. Inson huquqlari, ijtimoiy adolat va tenglik tamoyillarining qaror topishi bilan bog'liq bo'lgan gender munosabatlari nafaqat huquqiy va sotsiologik, balki falsafiy jihatdan ham chuqur tahlil etishni taqozo etadi. Chunki gender inson mavjudligining biologik asoslari bilan cheklanib qolmay, uning ijtimoiy tajribasi, madaniy qadriyatlari, tarixiy taraqqiyoti va ong shakllanishi bilan uzviy bog'liq murakkab hodisa sifatida namoyon bo'ladi.

Gender tushunchasining ilmiy talqinlari uning biologik jinsdan farqli ravishda ijtimoiy va madaniy mazmunga ega ekanini ko'rsatadi. Gender rollari, stereotiplari va ijtimoiy me'yorlari jamiyatda tarixan shakllangan bo'lib, ular erkak va ayol munosabatlarining mazmunini belgilab beradi. Ayniqsa, oilaviy muhitda yuzaga keladigan gender tengsizligi holatlari jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Oila institutida shakllangan notenglik ayollarning ijtimoiy faolligi va farovonligiga salbiy ta'sir etib, gender muammosining murakkab va ko'p qirrali ekanini namoyon etadi.

Shu nuqtai nazardan, gender masalasini ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil etish uning mohiyatini chuqurroq anglash imkonini beradi. Falsafiy yondashuv genderni faqat empirik hodisa sifatida emas, balki inson qadr-qimmati, erkinlik, adolat va tenglik kabi umuminsoniy qadriyatlar bilan bog‘liq tushuncha sifatida talqin etishga zamin yaratadi. Bu esa gender tengligini ta‘minlash masalasini jamiyatning umumiy madaniy taraqqiyoti va fuqarolik jamiyati rivoji bilan chambarchas bog‘liq holda o‘rganishni taqozo etadi.

Mazkur maqolada genderning falsafiy mohiyati va uning ijtimoiy voqelikdagi ifoda shakllari tahlil qilinib, gender tengligiga oid nazariy qarashlar va amaliy jarayonlar o‘rtasidagi bog‘liqlik yoritiladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi gender munosabatlarining ijtimoiy ong, madaniyat va huquqiy amaliyotdagi o‘rnini falsafiy jihatdan asoslab berishdan iborat.

Mamlakatimizda xotin-qizlarning huquq va erkinliklarini yanada takomillashtirish, gender tengligini ta‘minlash, xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, ularning jamiyatning ijtimoiy-siyosiy hayotida, xususan, tadbirkorlik faoliyatiga faol jalb etilishiga qaratilgan izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Mazkur jarayonlar davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biriga aylangan bo‘lib, bu holat gender masalasining nafaqat huquqiy, balki ijtimoiy-falsafiy ahamiyatini ham oshirmoqda.

Ayniqsa, “keyingi yillarda mamlakatimizda xotin-qizlarning xuquq va manfaatlarini, gender tenglikni ta‘minlash, oila, onalik va bolalikni himoya qilish, ayollar o‘rtasida tadbirkorlikni rivojlantirish, ular uchun yangi ish o‘rinlari yaratish, mehnat va turmush sharoitlarini yaxshilash davlat siyosatining ustuvor yunalishiga aylandi”[1. – B.406. (456)]. oila institutini mustahkamlash, jamiyatda sog‘lom ijtimoiy-ma‘naviy muhitni qaror toptirish, o‘zaro kelishmovchilik va nizolarni bartaraf etish, oilaviy ajrimlar sonini kamaytirish borasida davlat va jamoat tashkilotlari tomonidan keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Ushbu jarayonlar gender munosabatlarining ijtimoiy voqelikdagi ifodasini belgilovchi muhim omil bo‘lib, oila doirasida erkak va ayolning o‘zaro mas‘uliyati, huquq va majburiyatlarini qayta ko‘rib chiqishni taqozo etadi. Falsafiy nuqtai nazardan, bu holat genderning faqat biologik farqlar bilan emas, balki ijtimoiy-madaniy va axloqiy munosabatlar tizimi orqali shakllanishini ko‘rsatadi.

Xotin-qizlarning manfaatlarini teng himoya qilish hamda ularning huquqlarini huquqiy amaliyotda samarali ta‘minlash borasida tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Mazkur jarayonlar gender tengligi masalasining davlat siyosati darajasiga ko‘tarilganidan dalolat beradi. Xususan, Yangi O‘zbekistonning 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasida “jamiyatda xotin-qizlarga tazyiq va zo‘ravonlikka nisbatan murossasizlik muhitini yaratish, xotin-qizlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta‘minlash, shu bilan birga gender tenglikni

ta'minlash siyosatini davom ettirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularni qo'llab-quvvatlashga doir islohotlarni amalga oshirish" ustuvor maqsad sifatida belgilangan.

Xususan, Yangi O'zbekistonning 2022–2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasida "jamiyatda xotin-qizlarga tazyiq va zo'rvonlikka nisbatan murosasizlik muhitini yaratish, xotin-qizlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash, shu bilan birga gender tenglikni ta'minlash siyosatini davom ettirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularni qo'llab-quvvatlashga doir islohotlarni amalga oshirish". Ushbu strategik yondashuv gender masalasining faqat ijtimoiy muammo emas, balki huquqiy va falsafiy ahamiyatga ega bo'lgan kompleks hodisa ekanini ko'rsatadi. Chunki xotin-qizlar va erkaklar teng huquqliligini ta'minlash nafaqat normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilish bilan, balki ularni ijtimoiy ong va amaliyotda samarali ro'yobga chiqarish bilan chambarchas bog'liqdir. Shu bois gender tengligi tamoyilini mustahkamlash mavjud huquqiy mexanizmlarni yanada rivojlantirish, ularni jamiyat hayotiga moslashtirish hamda inson qadr-qimmatini oliy qadriyat sifatida qaror toptirishni taqozo etadi.

Bu jarayon tenglik g'oyasining abstrakt tushuncha emas, balki ijtimoiy voqelikda amaliy mazmun kasb etayotgan qadriyat ekanini anglatadi. Gender tengligining huquqiy asoslari mustahkamlangan sari, jamiyatda shaxs erkinligi, adolat va mas'uliyat tamoyillarining uyg'unlashuvi ham yanada aniq namoyon bo'ladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot genderning falsafiy mohiyati va uning ijtimoiy voqelikdagi ifoda shakllarini aniqlashga qaratilgan bo'lib, unda ijtimoiy-falsafiy tahlil metodologiyasiga asoslanildi. Tadqiqot jarayonida gender fenomeni biologik, ijtimoiy va madaniy omillarning o'zaro ta'siri natijasida shakllanadigan murakkab hodisa sifatida talqin etildi. Shu bois, mazkur masalani o'rganishda fanlararo yondashuv asosiy metodologik tamoyil sifatida qabul qilindi.

Tadqiqotda dialektik metod asosida gender munosabatlarining tarixiy rivojlanishi, ularning jamiyat taraqqiyoti jarayonidagi o'zgaruvchanligi va qarama-qarshi jihatlarini tahlil qilindi. Shuningdek, gender tushunchasining shakllanishi va evolyutsiyasini aniqlashda tarixiylik va mantiqiylik tamoyillaridan foydalanildi. Bu yondashuv gender masalasining turli davr va madaniy muhitlardagi talqinlarini qiyosiy o'rganish imkonini berdi.

Shuningdek, tadqiqotda ijtimoiy konstruktivizm yondashuvi asosida genderning ijtimoiy hodisa sifatida shakllanish mexanizmlari yoritildi. Bu yondashuv gender tengligini faqat huquqiy me'yorlar bilan emas, balki ijtimoiy ong, madaniyat va ta'lim tizimi orqali ta'minlash zarurligini asoslashga xizmat qildi. Gender masalasining ijtimoiy-falsafiy mohiyatini ochib berishda qiyosiy-

tahliliy metoddan foydalanilib, turli ilmiy qarashlar o'rtasidagi umumiylik va farqli jihatlar aniqlashtirildi.

Umuman olganda, qo'llanilgan metodologik yondashuvlar gender fenomenini yaxlit tizim sifatida o'rganish, uning nazariy asoslari va ijtimoiy amaliyotdagi namoyon bo'lish shakllarini falsafiy jihatdan asoslab berish imkonini berdi.

Gender muammosi zamonaviy ijtimoiy-falsafiy tadqiqotlarda muhim ilmiy yo'nalishlardan biri sifatida shakllangan bo'lib, mazkur masala xorijiy va milliy ilmiy adabiyotlarda keng yoritilgan. Gender tushunchasining nazariy asoslari, uning ijtimoiy-madaniy mohiyati hamda jamiyat taraqqiyotidagi o'rni falsafa, sotsiologiya, huquqshunoslik va madaniyatshunoslik fanlari doirasida kompleks tarzda tadqiq etilgan.

Genderning falsafiy mohiyatini ochib berishga qaratilgan tadqiqotlarda uni biologik jinsdan farqli ravishda ijtimoiy konstruktsiya sifatida talqin etish ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Jumladan, V.A. Alimasov[2] genderni shaxsning ijtimoiy mavjudligi, madaniy qadriyatlar va ong shakllanishi bilan uzviy bog'liq falsafiy kategoriya sifatida tahlil qilgan. N.M. Muravyeva[6] esa ayollarning ijtimoiy maqomini oshirish masalasini ijtimoiy adolat va tenglik tamoyillari nuqtai nazaridan ijtimoiy-falsafiy jihatdan asoslab bergan. Shuningdek, N.M. Niyazova[8] tadqiqotlarida gender tengligi xalqaro munosabatlar va global siyosiy jarayonlar kontekstida ko'rib chiqilgan.

O'zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligi va jamiyat taraqqiyotiga ta'siri masalalari S. Axrorova[4] tadqiqotlarida atroflicha yoritilgan. Muallif ayollarning siyosiy va ijtimoiy hayotdagi ishtirokini davlat siyosati va fuqarolik jamiyati rivoji bilan bog'liq holda tahlil qiladi. E. Basitxanova[9] va S. Jo'rayeva[10] ishlarida ayollar huquqlarining tarixiy shakllanishi, milliy an'analar va ijtimoiy taraqqiyot o'rtasidagi bog'liqlik ochib berilgan bo'lib, gender tengligi masalasining madaniy va tarixiy ildizlariga e'tibor qaratilgan.

Gender tengligini huquqiy jihatdan ta'minlash muammolari G.A. Matkarimova[5], M.Yu. Gasanov[16], va U. Tadjixanov[13] tadqiqotlarida markaziy o'rin egallaydi. Ushbu olimlar gender tengligini inson huquqlarining ajralmas qismi sifatida talqin etib, huquqiy madaniyat va normativ-huquqiy mexanizmlarning ahamiyatini asoslab bergan. Milliy va xalqaro hujjatlar, jumladan, ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllarini tugatish to'g'risidagi Konvensiya (CEDAW) doirasidagi milliy hisobotlar ham mazkur masalaning huquqiy-amaliy jihatlarini yoritishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Oila va madaniyat kontekstida gender munosabatlarini tadqiq etishga qaratilgan ishlar ham alohida ahamiyatga ega. O.J. Nishonova[7] o'zbek ayollarining etnomadaniy xususiyatlarini tahlil qilib, gender munosabatlarining milliy madaniyat bilan bog'liqligini ko'rsatadi. M. Xolmatova[19]

va M.To'xtaxo'jayeva[20] tadqiqotlarida esa oilaviy munosabatlar, gender tengsizligi va ayollarning jamiyatdagi mavqeiga ta'sir etuvchi omillar ijtimoiy-madaniy nuqtai nazardan yoritilgan.

Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlarning aksariyatida gender masalasi alohida yo'nalishlar – huquqiy, sotsiologik yoki tarixiy jihatdan tahlil qilingan bo'lib, uning falsafiy mohiyati va ijtimoiy voqelikdagi ifodasi masalasi yetarli darajada yaxlit va tizimli tarzda yoritilmagan. Ayniqsa, gender tengligi muammosini ijtimoiy ong, madaniyat va dunyoqarash bilan uzviy bog'liq holda falsafiy umumlashtirishga ehtiyoj mavjud.

Mazkur maqolada aynan shu ilmiy bo'shliqni to'ldirish, gender fenomenini ijtimoiy-falsafiy kategoriya sifatida kompleks tahlil qilish hamda uning zamonaviy jamiyatdagi ifoda shakllarini aniqlash maqsad qilib qo'yilgan.

Tahlil va natijalar. Gender atamasi dastlab lotin tilidan ingliz tiliga “urug'” ma'nosida kirib kelgan bo'lsa-da, ijtimoiy fanlar rivoji jarayonida uning mazmuniy doirasi sezilarli darajada kengaydi. Natijada mazkur tushuncha biologik jinsni ifodalovchi kategoriya sifatidan chiqib, ijtimoiy va madaniy omillar bilan bog'liq hodisani anglatadigan ilmiy atamaga aylandi. Xususan, Kaliforniya universitetining transseksuallik muammolari tadqiqot markazi xodimi Robert Stoller tomonidan gender atamasini “ijtimoiy ma'nodagi jins” sifatida talqin etish taklif etildi. Ushbu yondashuv gender tushunchasining mohiyatini biologik belgilar bilan cheklab qo'yish mumkin emasligini, balki uning ijtimoiy munosabatlar, madaniy qadriyatlar va shaxsiy ong shakllanishi bilan uzviy bog'liqligini ilmiy jihatdan asoslab berdi.

“Shu tariqa u xalqaro nufuzli kongresda shaxsning ijtimoiy jinsiy tafakkurini biologik va madaniy jihatiga ega bo'lgan. U biologik gormonlar, genlar, asab tizimi, morfologik, madaniy ma'nosida psixologik va sotsiologik jihatlarining antropologik xususiyatini nazarda tutgan. Natijada ijtimoiy shaxsning fiziologik va seksual ehtiyojlarini ajratib fanga yangicha yondashuvni amalga oshirgan”[24. – P. 32]. Ushbu fikr gender fenomenining murakkab va ko'p qatlamli mohiyatini ochib beradi. Ya'ni, insonning jinsiy identifikatsiyasi nafaqat tabiiy-biologik asosga, balki ijtimoiy tajriba, madaniy qadriyatlar va shaxsiy ong shakllanishiga ham tayanadi.

Bu yondashuv genderni ontologik jihatdan barqaror kategoriya emas, balki tarixiy va ijtimoiy sharoitda shakllanuvchi hodisa sifatida talqin etishga imkon beradi. Aynan shu sababli ko'plab jamiyatlarda xotin-qizlarga nisbatan shakllangan an'anaviy gender rollari va stereotiplar ularning ijtimoiy faolligini cheklovchi omilga aylanmoqda. Mazkur stereotiplar ayollarning jamiyatdagi imkoniyatlarini toraytirib, ularni ma'lum ijtimoiy rollar bilan chegaralab qo'yadi.

Shu nuqtai nazardan, huquqiy madaniyatning yuksalishi xotin-qizlarning o'z huquq va erkinliklari to'g'risida xabardorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Huquqiy bilim va ong ayollarni jamiyatdagi nohaq munosabatlarga qarshi ongli pozitsiya egallashga undaydi. Xususan, oiladagi zo'ravonlik, mehnat bozoridagi kamsitish yoki ta'lim olishdagi tengsizlik kabi muammolarni hal etishda huquqiy savodxonlik samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Bu esa gender tengligini nafaqat nazariy tamoyil, balki ijtimoiy voqelikda amalga oshirilayotgan real jarayon sifatida qaror toptirishga zamin yaratadi.

“Gender (gender) – ijtimoiy jins. Ingliz tilida ijtimoiy jins (“gender”) va biologik jins (“sex”) tushunchalari farqlanadi”[25. – B.8]. Ushbu ta'rif gender va jins tushunchalarining mazmun jihatdan bir-biridan farq qilishini anglatadi. Ya'ni, biologik jins insonning tabiiy-fiziologik xususiyatlarini ifodalasa, gender jamiyat tomonidan shakllantirilgan ijtimoiy-madaniy rollar va me'yorlar majmuini qamrab oladi.

Gender tushunchasi feminizmning nazariy rivojlanishi jarayonida, keyinchalik esa gender tadqiqotlari doirasida mustaqil ilmiy kategoriya sifatida shakllandi. Bu jarayon jins masalasini faqat tabiiy holat sifatida emas, balki ijtimoiy konstruksiya sifatida talqin etish imkonini berdi. Shu ma'noda, “Gender – jinsning madaniy inqilobi, bizning o'z ijtimoiy-madaniy tasavvurlarimiz doirasidagi jins haqidagi qarashlarimizdir” [25. – B.9].

Bundan ko'rinadiki, jins faqat biologik hodisa emas, balki uning ijtimoiylashtirilishi natijasida shakllanadigan tushunchadir. Shu sababli jins insonning o'ziga xos belgisi sifatida emas, balki insonning jamiyatdagi mavqei va ijtimoiy munosabatlari bilan bog'liq hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Boshqacha aytganda, jins insonga tegishli emas, balki inson jinsga oid ijtimoiy munosabatlar tizimi doirasida mavjuddir.

Rossiya ijtimoiy fanlarida gender maktabining asoschisi sifatida e'tirof etilgan N. L. Pushkareva gender tushunchasiga oid qarashlarini feministik tadqiqotlar doirasida izohlaydi. Olimaning ta'kidlashicha, “genderga odatda ayollikning ijtimoiy tajribasi sifatida feministik tadqiqotlarda ijtimoiy, psixiologik, nuqtai nazardan erkakka nisbatan: xatti-harakat me'yori, jismoniy biologik stereotipi, fe'l-atvorga bog'liq ayollikni aniqlovchi tipik va tabiiy bo'ladigan xususiyatlari nazarda tutilganligini ta'kidlab o'tgan. O'tgan asrning 70 yillaridagi gender bilan bugungi talqinlar jiddiy farqlanishi xususidagi olimaning fikrlariga qo'shilamiz”[26. – C. 9.]. Ushbu yondashuv gender masalasining ayollik fenomeni bilan uzviy bog'liqligini, shuningdek, jamiyatda shakllangan me'yorlar va stereotiplar orqali talqin etilishini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, Pushkareva gender tushunchasining tarixiy rivojlanish jarayoniga ham e'tibor qaratadi. Xususan, o'tgan asrning 1970-yillaridagi genderga oid qarashlar bilan bugungi

zamonaviy talqinlar o'rtasida jiddiy farqlar mavjudligini ta'kidlaydi. Bu holat gender tushunchasining qat'iy va o'zgarmas kategoriya emasligini, balki ijtimoiy-madaniy jarayonlar ta'sirida doimiy ravishda qayta talqin etilib boriladigan hodisa ekanini anglatadi. Mazkur fikrlarga qo'shilgan holda aytish mumkinki, gender fenomeni jamiyat taraqqiyoti, madaniy ong va ijtimoiy munosabatlar bilan chambarchas bog'liq holda rivojlanib boradi.

Gender ijtimoiy tuzilma sifatida murakkab va ko'p qatlamli tushuncha bo'lib, u uch asosiy guruhni qamrab oladi: biologik jins, muayyan jamiyatda shakllangan jinsga oid rollar haqidagi aqidalar hamda "gender displeyi – erkaklar va ayollar xatti-harakatlari va o'zaro hamkorligining ijtimoiy me'yorlari bilan bog'liq bo'lgan turli-tuman ko'rinishlari"[27. – C. 98.]. Ushbu ta'rif genderning shaxsiy xususiyat emas, balki jamiyat tomonidan ishlab chiqilgan va tartibga solingan ijtimoiy hodisa ekanini ifodalaydi.

"Gender displeyi" tushunchasi sotsiolog Erving Goffman tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, u jinsning madaniy jihatlari kundalik hayotda qanday namoyon bo'lishini tushuntirib beradi. Goffmanning yondashuviga ko'ra, erkaklar va ayollar o'z xatti-harakatlari orqali jamiyatda mavjud bo'lgan gender me'yorlarini namoyish etadi va qayta ishlab chiqaradi. Bu esa genderning individual tanlovdan ko'ra, madaniyatda qaror topgan ijtimoiy munosabatlar o'lchovi sifatida yuzaga kelishini anglatadi.

Falsafiy jihatdan qaralganda, ushbu yondashuv genderni qat'iy biologik determinizm doirasidan chiqarib, uni ijtimoiy-madaniy konstruktsiya sifatida talqin etishga imkon beradi. Natijada gender shaxsning tabiiy belgisi emas, balki jamiyat tomonidan shakllantiriladigan, me'yorlashtiriladigan va kundalik amaliyotda doimiy ravishda namoyon bo'ladigan ijtimoiy hodisa sifatida tushuniladi.

"Xotin-qizlarning ijtimoiy faolligi oila, jamiyatning muammolari bilan uyg'undir. Ayni vaqtda ayolning farovonligi oilaviy gender munosabatlari tarixiy, madaniy-huquqiy muhit, ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar bilan belgilanadi. Gender tengsizligining eng ko'p uchraydigan holati oilada yuz berishi bilan muammoni hal qilishning murakkablashuvini tadqiqotlar bilan dalillash mumkin" [28. – B. 30-33.]. Ushbu fikr ayollarning jamiyatdagi mavqei va faolligi oilaviy munosabatlar tizimi bilan bevosita bog'liq ekanini ko'rsatadi. Oila ijtimoiylashuvning dastlabki makoni sifatida gender rollari va munosabatlarining shakllanishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Ayol farovonligi individual holat emas, balki tarixiy rivojlanish, madaniy qadriyatlar, huquqiy me'yorlar va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarning o'zaro ta'siri natijasida vujudga keladigan murakkab hodisadir. Ayniqsa, gender tengsizligining ko'p hollarda oilaviy muhitda namoyon

bo'lishi ushbu muammoning chuqur ildizlarga ega ekanini ko'rsatadi. Chunki oila doirasida shakllangan notenglik jamiyat miqyosida takrorlanib, ijtimoiy munosabatlarning barcha sohalariga ta'sir ko'rsatadi.

Shu bois gender tengsizligini bartaraf etish masalasi faqat huquqiy choralar bilan cheklanmasdan, oilaviy munosabatlarni ijtimoiy-falsafiy jihatdan qayta ko'rib chiqishni, ong va madaniyat darajasida o'zgarishlarni talab etadi. Bu jarayon ayollarning ijtimoiy faolligini oshirish va jamiyat taraqqiyotida ularning rolini mustahkamlash uchun muhim shart hisoblanadi.

Shuningdek, fuqarolik jamiyati asoslarini rivojlantirish jarayonida ayollarning ijtimoiy zamonaviy maqomi va turmush tarzini shakllantirish masalasi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda umuminsoniy qadriyatlarga tayanish bilan bir qatorda, milliy an'analar, madaniy xususiyatlar va ijtimoiy tajribani inobatga olish zarur. Aynan shu uyg'unlik ayollarning jamiyatdagi o'рни va rolini barqaror hamda mazmunli tarzda rivojlantirishga xizmat qiladi.

Gender tengligini ta'minlash masalasida Norboyeva masalaning eng muhim jihati sifatida jamiyat a'zolarining dunyoqarashini o'zgartirish zarurligini ta'kidlaydi. Olimaning fikricha, gender tengligi faqat huquqiy mexanizmlar orqali emas, balki ijtimoiy ong va qadriyatlar tizimini yangilash orqali amalga oshirilishi mumkin. Shu ma'noda u quyidagicha qayd etadi:

“Gender tengligini ta'minlaymiz desak, odamlarning dunyoqarashini o'zgartirish kerak. Bizda erkaklar ayolga qattiq gapirsa ham, kuch ishlatsa ham bu zo'ravonlik emas, oddiy holat, “er bo'lgandan keyin uradi-da” degan qarash shakllangan bo'lishi mumkin. Bunday munosabatning noto'g'ri ekanligini tushuntirishimiz kerak” [29.].

Mazkur fikr jamiyatda chuqur ildiz otgan gender stereotiplari va zo'ravonlikni normallashtiruvchi qarashlarning mavjudligini ochib beradi. Falsafiy nuqtai nazardan qaralganda, bu holat axloqiy me'yorlar va ijtimoiy ong o'rtasidagi nomuvofiqlikni ifodalaydi. Chunki zo'ravonlikka nisbatan bag'rikenglik inson qadr-qimmatini va tenglik tamoyillariga zid bo'lgan munosabatdir.

Shuningdek, Norboyeva gender tengligi masalasida ta'lim tizimining o'рни muhim ekanini alohida ta'kidlaydi. Unga ko'ra, “Gender tengligi mavzusi bo'yicha tushunchalar berishni o'quv dasturlariga kiritish masalasi ko'rilmogda. Maktabgacha ta'limdan tortib oliy ta'limgacha gender tengligi mavzusi bilan yoshlar tanishtirib boriladi, shunda yangi avlodda mulohaza yo'nalishi, stereotiplar o'zgaradi”. Ushbu yondashuv gender tengligini avlodlar ongida shakllantirish, ijtimoiy munosabatlarni uzoq muddatli istiqbolda sog'lomlashtirishga qaratilgan strategik choradir.

Ijtimoiy-falsafiy jihatdan bu fikrlar gender tengligini tashqi majburlov emas, balki ongli tanlov va madaniy taraqqiyot mahsuli sifatida qaror toptirish zarurligini ko'rsatadi. Zero, dunyoqarash o'zgaras ekan, huquqiy islohotlar ham kutilgan ijtimoiy samara bermaydi.

Xulosa. Mazkur maqolada genderning falsafiy mohiyati va uning ijtimoiy voqelikdagi ifoda shakllari kompleks ijtimoiy-falsafiy tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida gender tushunchasining biologik jinsdan farqli ravishda ijtimoiy-madaniy va tarixiy shakllanadigan hodisa ekanligi asoslab berildi. Gender munosabatlari jamiyat taraqqiyoti, madaniy qadriyatlar, huquqiy me'yorlar hamda ijtimoiy ong bilan uzviy bog'liq holda rivojlanishi ilmiy jihatdan asoslandi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, gender tengligi faqat normativ-huquqiy mexanizmlar orqali emas, balki jamiyat a'zolarining dunyoqarashi, axloqiy qarashlari va madaniy ongini o'zgartirish orqali ta'minlanadi. Ayniqsa, oilaviy muhitda shakllanadigan gender munosabatlari ayollarning ijtimoiy faolligi va jamiyatdagi mavqeiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Oila institutida yuzaga keladigan gender tengsizligi holatlari jamiyat miqyosida ijtimoiy munosabatlarning turli sohalarida takrorlanib, muammoning murakkab va tizimli xarakterga ega ekanini namoyon etadi.

Maqolada shuningdek, gender tengligini ta'minlashda huquqiy madaniyat va ta'lim tizimining ahamiyati alohida ta'kidlandi. Ta'lim jarayoniga gender tengligi bo'yicha tushunchalarni izchil joriy etish jamiyatda mavjud stereotiplarni bartaraf etish, yangi avlod ongida tenglik va adolat tamoyillarini qaror toptirishning muhim omili ekanligi asoslab berildi. Bu esa gender tengligini uzoq muddatli ijtimoiy taraqqiyot strategiyasi sifatida shakllantirish zarurligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, gender masalasining ijtimoiy-falsafiy tahlili uning mohiyatini chuqurroq anglash, nazariy qarashlar va ijtimoiy amaliyot o'rtasidagi bog'liqlikni ochib berish imkonini berdi. Tadqiqot natijalari gender tengligini ta'minlash jamiyatning madaniy taraqqiyoti, fuqarolik jamiyati rivoji va inson qadr-qimmatini yuksaltirishning muhim sharti ekanini ko'rsatadi. Mazkur xulosalar kelgusida gender munosabatlarini o'rganishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar hamda amaliy siyosiy-ijtimoiy dasturlarni ishlab chiqishda nazariy-metodologik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тикланишдан - миллий юксалиш сари. - Тошкент: Ўзбекистон, 2020. – Б.406. (456)
2. Alimasov V.A. Gender falsafasi. – Toshkent: Falsafa va Huquq, 2008. – 24 b.
3. Axrorova S. O'zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faollashuvi va jamiyat taraqqiyotiga ta'siri: falsafa fanlari doktori (DSc) avtoreferati. – Toshkent, 2023. – 15 b.

4. Axrorova S. O'zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligi va jamiyat taraqqiyotiga ta'siri: falsafa fanlari doktori dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent: O'zMU, 2022. – 68 b.
5. Маткаримова Г. А. Гендерные и репродуктивные права женщин в международном и национальном праве: Автореф. дис. д-ра юрид. наук. – Ташкент, 2002.
6. Муравьёва Н. М. Социально-философский анализ повышения социального статуса женщин: Автореф. дис. канд. филос. наук. – Ташкент, 2003.
7. Nishonova O.J. O'zbek ayollarining etnomadaniyati: falsafa fanlari nomzodi dissertatsiyasi. – Toshkent: MRDI, 2005. – 147 b.
8. Niyazova N.M. Xalqaro munosabatlar tizimida gender tenglikni ta'minlash masalasi: falsafa fanlari nomzodi dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2019.
9. Basitxanova E. O'zbekiston ayoli: tarix va taraqqiyot. Ayol huquqi qadimiy qadriyatdir // O'zbekiston ayollari. – Toshkent: Istiqlol nuri, 2013. – B. 3–11.
10. Jo'rayeva S. Taraqqiyot va ayollar huquqi // Tafakkur. – 2003. – № 2. – B. 83.
11. Karimova V.M. Ayollar salomatligi va gender masalalari // Sog'lom avlod uchun. – 2006. – № 5. – B. 12–15.
12. Рахманкулов М. Демократия и право. – Ташкент: Адолат, 1995. – 234 с.
13. Таджиханов У., Саидов А. Хукукий маданият назарияси: 2 жилдлик. – Тошкент: ИИВ Академияси, 1998. – 447 б.
14. Валиева Б. С., Черкашина И. А. Женщины Узбекистана: закон и проблемы общества. – Ташкент, 1999.
15. Васикова М. С. Правовое положение женщин Узбекистана. – Ташкент: Фан, 1981.
16. Гасанов М. Ю. Социальные и экономические права женщин: проблемы реализации. – Ташкент: Шарк, 2001.
17. Инакова М. М. Реализация международных стандартов по правам женщин // Женщина: ее права и свободы. – 2001. – № 1. – С. 32–38.
18. Караева Н. Женщина: ее права и свободы. – Ташкент, 2001. – 123 с.
19. Xolmatova M. Oilaviy munosabatlar madaniyati va sog'lom avlod tarbiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2000. – 216 b.
20. Тохтаходжаева М. Утомленные прошлым. Реисламизация общества и положение женщин в Узбекистане. – Вена, 2001. – 121 с.

21. Алимджанова Д. Гендерное равенство как фактор устойчивого человеческого развития // Введение в теорию и практику гендерного равенства / под ред. Е. Б. Мезенцевой. – Ташкент: ООН, Гендерная программа Посольства Швейцарии, 2007. – С. 8–61.
22. Атаходжаев Ф. М. Развитие законодательства о браке Республики Узбекистан и проблемы его дальнейшего совершенствования: Автореф. дис. д-ра юрид. наук. – Ташкент, 1999.
23. Национальный доклад Республики Узбекистан об исполнении положений Конвенции «О ликвидации всех форм дискриминации в отношении женщин» / отв. ред. А. Х. Саидов. – Ташкент, 1999.
24. Stoller R. Sex and Gender: on the Development of Masculinity and Femininity. N.Y., 1968. – P. 32
25. Гендер таджикоти асослари курси хрестоматияси. Т.: Ўзбекистон. 2003.
26. Пушкарева Н. Л. Что такое гендер? // Гендерная теория и историческое знание: Материалы второй межд. научно-практ. конф-ии / Отв. ред. А.А. Павлов, В.А. Семенов. – Сыктывкар: СГУ, 2005. – С. 9.
27. Collins. Большой толковый социологический словарь. М.: «АСТ», 1999, Т.1.С. 98.
28. Ниязова Г.М. Гендер тенгликни таъминлашнинг ҳуқуқий жиҳатлари// Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. –2017. –№ 1. –Б. 30-33.
29. <https://kun.uz/news/2020/08/15/odamlarning-dunyoqarashini-ozgartirish-kerak-tanzila-norboyeva-ozbekistonda-gender-tenglikni-taminlash-haqida>